



**BUXORO VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI**

**BUXORO VILOYATINING  
SANOAT ISHLAB CHIQRISHI**  
*2021- YIL YANVAR-MART*

**Sanoat statistikasi bo'limi**  
**Tel.: 65-220-83-06**

## Buxoro viloyatining sanoat ishlab chiqarishi

(2021- yil yanvar-mart)


Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2021- yilning yanvar-mart oylarida viloyat korxonalarini tomonidan 4077,2 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2020- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi\* 87,1 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi (94,4 %)ni tashkil etdi.



*B*–Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, *C*–Ishlab chiqaradigan sanoat *D*–Elektr, gaz, bugʻ bilan taʼminlash va havoni konditsiyalash, *E*–Suv bilan taʼminlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yigʻish va utilizatsiya qilish.


### Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI\* % da



Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi pasayishining asosiy omili bo'lib, togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatida - 40,6 % ga, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning - 8,0 % ga hamda suv bilan taʼminlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yigʻish va utilizatsiya qilishning - 18,4 % ga pasayishi kuzatildi.


\*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

## Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati




Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2021- yilning yanvar-mart oyida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 47,7 mlrd. soʻmni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,2 % ini tashkil etdi.

## Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi, % da



## Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish


### Oʻtgan yilning mos davriga nisbatan, % da



**Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**


Sanoat mahsulotlari	2020- yil yanvar-mart	2021- yil yanvar-mart	Farqi +/-
Oltinugurt , t.	349,0	203,0	-146,0
Shagʻal , t.	10087,0	0	-10087,0
Neft va tabiiy gaz qazib olish bilan bogʻliq burgʻilash xizmatlari, mln. soʻm.	61926,4	30303,4	-31623

**Ishlab chiqaradigan sanoat**




2021- yilning yanvar-mart oyida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 3847,2 mlrd soʻmni yoki jami sanoat mahsulotlarining 94,4 % ini tashkil etdi.

**Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, % da**



O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,1 % ni (2020- yilning yanvar-mart oylarida – 0,1 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 1,7 % (1,8 %), o'rta-quyi texnologiyali – 48,5 % (61,0 %) va quyi texnologiyalisi – 49,7 % (37,1 %)ni tashkil etdi.




Jami sanoat tarkibida koks va neftni qayta ishlash mahsulotlarini ishlab chiqarish sohasining ulushi – 37,3 % (2020- yil yanvar-mart oylariga nisbatan fizik hajm indeksi – 67,1 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarish sohasining ulushi – 29,0 % (2020- yil yanvar-mart oylariga nisbatan fizik hajm indeksi – 109,9 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 16,9 % (2020- yil yanvar-mart oylariga nisbatan fizik hajm indeksi – 109,1 %), boshqa nometall mineral mahsulotlarni ishlab chiqarishning ulushi – 5,3 % (2020- yil yanvar-mart oylariga nisbatan fizik hajm indeksi – 104,0 %) ni tashkil etdi.

## Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati

2021- yilning yanvar-mart oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 238,2 ming tonna avtomobil benzini (2020- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 20,2 % ga o'sgan), 5,8 ming tonna kalava ip (23,2 %), 271,3 ming litr aroq mahsulotlari (20,8 %) ishlab chiqarilib, yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi.


### O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da



**Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish**

<b>Sanoat mahsulotlari</b>	<b>2020- yil yanvar-mart</b>	<b>2021- yil yanvar-mart</b>	<b>Farqi +/-</b>
Mazut, ming t.	19,4	23,9	4,5
O'simlik yog'i (tozalangan), t.	4074,8	4628,8	554,0
Paxta, tolasi, t.	34808,0	40029,0	5221,0
Yumshoq bug'doy va spelta uni, t.	21970,2	21920,0	-50,2
Quyish uchun tayyor beton, t.	6842,1	2947,5	-3894,6
Avtomobil benzini, ming t.	198,1	238,2	40,1
Paxta chigiti, t.	57778,0	60494,0	2716,0
Yig'ma konstruksiyalar elementlari, t.	6058,2	13015,3	6957,1
Dizel yoqilg'isi, ming t.	158,6	73,9	-84,7

**Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish**  
(2021- yil yanvar-mart)




## To'qimachilik, kiyim va teri mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

(2021- yil yanvar-mart)

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2020- yilning yanvar-mart oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 21,3 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 95,5 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2021- yilning yanvar-mart oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 29,0 % ni, fizik hajm indeksi 9,9 % ga o'sgan bo'lsa, ishlab chiqarish hajmi 1182,4 mlrd. so'mni tashkil etd.



## Oziq-ovqat va ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

(2021- yil yanvar-mart)

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2020- yilning yanvar-mart oylarida oziq-ovqat va ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 13,1 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 100,0 % ni tashkil etgan bo'lsa,

2021-yilning yanvar-mart oylari yakunlariga ko'ra, oziq-ovqat va ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 16,9 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 9,1 % ga oshdi va ishlab chiqarish hajmi 689,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.






## Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish

(2021- yil yanvar-mart)


Jami sanoat tarkibida 2020- yilning yanvar-mart oylarida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 4,9 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 114,0 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2021- yilning yanvar-mart oylari yakunlariga ko'ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning sanoat tarkibidagi ulushi 5,3 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 4,0 % ga oshdi va ishlab chiqarish hajmi 215,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.



## Kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoati


(2021- yil yanvar-mart)

Jami sanoat tarkibida 2019- yilning yanvar-mart oylarida ushbu yo'nalishda mahsulot ishlab chiqarishning ulushi 1,9 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 119,0 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2021- yilning yanvar-mart oylari yakunlariga ko'ra, shu turdagi mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 1,8 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 47,0 % ga kamaydi va ishlab chiqarish hajmi 73,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.



## Elektr, gaz, bug' bilan taminlash va havoni konditsiyalash


2021- yilning yanvar-mart oylarida



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 144,9 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining (3,5 % ini) tashkil etdi.

2021- yilning yanvar-mart oyida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 19,8 % ga oshganligi kuzatildi.


### Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, % da



### Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish


Sanoat mahsulotlari	2020- yil yanvar-mart	2021- yil yanvar-mart	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt.s	1,6	1,7	0,1
Issiqlik energiyasi, ming gkal	370,5	394,7	24,2

## Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 37,4 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,9 % ini) tashkil etdi.

### Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, % da




Sanoat mahsulotlari	2020- yil yanvar-mart	2021- yil yanvar-mart	Farqi +/-
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mln.so'm	2543,5	4496,0	1952,5
Axlat o'ralarni, tindirgichlarni va septiklarni bo'shatish, tozalash va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mln.so'm	92,6	122,4	29,8

O'tgan yilning mos davriga nisbatan axlat o'ralarni, tindirgichlarni va septiklarni bo'shatish, tozalash va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 32,2 % ga oshganligi kuzatildi.

## Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 1599,0 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2020- yilning mos davriga nisbatan 23,5 % ga oshdi, uning jami sanoatdagi ulushi 39,2 % ni tashkil etdi.



Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari va pivo 2,5 % (2020- yil yanvar-mart oylarida 2,3 %)ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Qorovulbozor tumaniga to'g'ri kelib, 23,3 % ni, shuningdek, Buxoro shahri 19,4 % ni, G'ijduvon tumani 11,1% Jondor 6,8 %, Kogon shahri 6,5% ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida viloyat o'sish sur'ati (123,5 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Kogon (161,8 %), Kogon shahri (159,4 %), Olot (154,3 %), Peshku (153,5 %) tumanlarida qayd etildi.

**Hududlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab  
chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati  
2021- yilning yanvar-mart oylarida**

	<i>Mlrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>		<i>Mlrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>
	1599,0	100,0	123,5				
<b>Buxoro viloyati</b>							
	<i>Mlrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>		<i>Mlrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>
	35,2	2,2	154,3		46,0	2,9	153,5
<b>Olot</b>				<b>Peshku</b>			
	<i>Mlrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>		<i>Mlrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>
	80,3	5,0	110,7		54,4	3,4	110,7
<b>Buxoro</b>				<b>Romitan</b>			
	<i>Mlrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>		<i>Mlrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>
	72,1	4,5	100,8		108,3	6,8	106,2
<b>Vobkent</b>				<b>Jondor</b>			
	<i>Mlrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>		<i>Mlrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>
	177,5	11,1	112,0		79,3	5,0	114,5
<b>G'ijduvon</b>				<b>Shofirkon</b>			
	<i>Mlrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>		<i>Mlrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>
	89,6	5,6	161,8		310,5	19,4	143,3
<b>Kogon</b>				<b>Buxoro sh.</b>			
	<i>Mlrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>		<i>Mlrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>
	68,5	4,3	100,3		104,8	6,5	159,4
<b>Qorako'l</b>				<b>Kogon sh.</b>			
	<i>Mlrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>				
	372,5	23,3	119,0				
<b>Qorovulbozor</b>							

Hududlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Qorovulbozor tumaniga to'g'ri kelib, 35,6 % ni, shuningdek Buxoro shahri 19,9 % ni, G'ijduvon tumani 11,1 % ni hamda Kogon tumani 5,3%, Vobkent tumani 5,0%, ni tashkil etdi.

Shuningdek, nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida yuqori ko'rsatkich Olot tumani (212,1 %), Kogon shahri (185,6 %), Buxoro shahri (145,9 %) ,hamda Kogon tumanida (117,4 %) qayd etildi.

**Hududlar bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab  
chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati  
2021- yilning yanvar-mart oylarida**

	<b>Mird. so'm</b>	<b>Ulushi % da</b>	<b>O'sishi % da</b>		<b>Mird. so'm</b>	<b>Ulushi % da</b>	<b>O'sishi % da</b>
	1034,4	100,0	124,2				
<b>Buxoro viloyati</b>							
	22,1	2,1	212,1		18,3	1,8	136,1
<b>Olot</b>				<b>Peshku</b>			
	41,4	4,0	107,1		28,9	2,8	108,8
<b>Buxoro</b>				<b>Romitan</b>			
	51,6	5,0	100,5		34,8	3,4	105,0
<b>Vobkent</b>				<b>Jondor</b>			
	114,7	11,1	119,4		36,9	3,6	122,8
<b>G'ijduvon</b>				<b>Shofirkon</b>			
	55,1	5,3	138,3		206,0	19,9	145,9
<b>Kogon</b>				<b>Buxoro sh.</b>			
	20,7	2,0	88,7		35,2	3,4	185,6
<b>Qorako'l</b>				<b>Kogon sh.</b>			
	368,7	35,6	119,0				
<b>Qorovulbozor</b>							

Hududlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Buxoro shahriga to'g'ri kelib, 18,5 % ni, shuningdek, Jondor tumani 13,0 % ni, Kogon shahrida esa 12,4 % ni, G'ijduvon tumanida 11,1% tashkil etdi.

Shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida eng yuqori ko'rsatkich Kogon tumanida (221,7 %) , Peshku tumanida (167,5 %) hamda Kogon shahriga (148,8 %) qayd etildi.

**Hududlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab  
chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati**  
2021- yilning yanvar-mart oylarida

	Mrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da		Mrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	564,6	100,0	122,2				
<b>Buxoro viloyati</b>							
	13,1	2,3	105,8		27,7	4,9	167,5
<b>Olot</b>				<b>Peshku</b>			
	38,9	6,9	114,9		25,5	4,5	112,9
<b>Buxoro</b>				<b>Romitan</b>			
	20,5	3,6	101,8		73,5	13,0	106,8
<b>Vobkent</b>				<b>Jondor</b>			
	62,8	11,1	100,5		42,4	7,5	108,2
<b>G'ijduvon</b>				<b>Shofirkon</b>			
	34,5	6,1	221,7		104,5	18,5	138,3
<b>Kogon</b>				<b>Buxoro sh.</b>			
	47,8	8,5	106,4		69,6	12,4	148,8
<b>Qorako'l</b>				<b>Kogon sh.</b>			
	3,8	0,7	116,6				
<b>Qorovulbozor</b>							

**Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar  
tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish**  
2021- yilning yanvar-mart oylarida

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 446,8 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi tutgan ulushi 11,0 % ni tashkil etdi.


**Buxoro viloyati hududlari kesimida  
sanoat ishlab chiqarishi hajmlari**  
2021- yil yanvar-mart oylarida

	Mrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	<b>4077,2</b>	<b>100,0</b>	<b>87,1</b>
<b>Buxoro viloyati *</b>			
	Mrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	<b>80,7</b>	<b>2,0</b>	<b>102,7</b>
<b>Olot</b>			
	Mrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	<b>122,5</b>	<b>3,0</b>	<b>104,2</b>
<b>Peshku</b>			
	Mrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	<b>149,8</b>	<b>3,7</b>	<b>105,2</b>
<b>Buxoro</b>			
	Mrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	<b>164,8</b>	<b>4,0</b>	<b>105,7</b>
<b>Romitan</b>			
	Mrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	<b>80,9</b>	<b>2,0</b>	<b>101,4</b>
<b>Vobkent</b>			
	Mrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	<b>209,8</b>	<b>5,2</b>	<b>101,7</b>
<b>Jondor</b>			
	Mrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	<b>367,5</b>	<b>9,0</b>	<b>102,1</b>
<b>G'ijduvon</b>			
	Mrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	<b>162,5</b>	<b>4,0</b>	<b>108,6</b>
<b>Shofirkon</b>			
	Mrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	<b>196,8</b>	<b>4,8</b>	<b>109,4</b>
<b>Kogon</b>			
	Mrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	<b>568,0</b>	<b>13,9</b>	<b>111,8</b>
<b>Buxoro sh.</b>			
	Mrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	<b>133,3</b>	<b>3,3</b>	<b>101,2</b>
<b>Qorako'l</b>			
	Mrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	<b>261,0</b>	<b>6,4</b>	<b>102,4</b>
<b>Kogon sh.</b>			
	Mrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	<b>1579,6</b>	<b>38,7</b>	<b>73,6</b>
<b>Qorovulbozor</b>			

\* Hududlar bo'yicha taqsimlanmagan ma'lumotlarni qo'shgan holda



**Buxoro viloyati hududlari kesimida ishlab  
chiqarish fizik hajm indeksi, iste'mol mahsulotlari  
ishlab chiqarishning o'sish sur'ati % da**




Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish Buxoro shahrida (2020- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 111,8 %), Kogon tumanida (109,4 %), Shofirkon (108,6 %) va Romitan (105,7 %) tumanlarida sezilarli darajada oshdi.

Viloyat sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish ko'rsatkichlarining o'tgan yilning shu davriga nisbatan pasayish omili bolib Qorovulbozor (2020- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 73,6 %) tumanida ishlab chiqarish hajmlarining kamayishi kuzatildi.

## Buxoro viloyati jami sanoat mahsulotlari hajmida hududlarning ulushi, % da

Viloyat sanoat ishlab chiqarishi hajmi tarkibida eng ko'p ulush Qorovulbozor tumani (Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmining 38,7 % i), Buxoro shahri (13,9 %), G'ijduvon tumani (9,0 %), Kogon shahar (6,4 %), Jondor (5,2 %), Kogon (4,8 %) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.


Eng past ko'rsatkich esa Vobkent (2,0 %) hamda Olot (2,0 %) tumanlariga to'g'ri kelmoqda.



Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Qorovulbozor tumani (84927,1 ming so'm), Kogon shahri (4237,2 ming so'm) va Kogon tumani (2475,2 ming so'm) o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (2091,4 ming so'm) ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.

Viloyat bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 820,2 ming so'm bo'lgani holda, Qorovulbozor tumanida – 20029,4 ming so'mni, Kogon shahrida – 1701,6 ming so'mni, Kogon tumanida – 1127,6 ming so'mni, Buxoro shahrida 1102,6 ming so'mni tashkil etdi.

**Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari  
va iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish**  
2021- yil yanvar-mart, ming so'm

	<b>Sanoat mahsulotlari</b>	<b>Iste'mol mahsulotlari</b>
	2091,4	820,2
<b>Buxoro viloyati</b>		


	<b>Sanoat mahsulotlari</b>	<b>Iste'mol mahsulotlari</b>		<b>Sanoat mahsulotlari</b>	<b>Iste'mol mahsulotlari</b>
	805,9	351,0		982,1	368,6
<b>Olot</b>			<b>Peshku</b>		
	<b>Sanoat mahsulotlari</b>	<b>Iste'mol mahsulotlari</b>		<b>Sanoat mahsulotlari</b>	<b>Iste'mol mahsulotlari</b>
	885,3	474,4		1144,5	378,0
<b>Buxoro</b>			<b>Romitan</b>		
	<b>Sanoat mahsulotlari</b>	<b>Iste'mol mahsulotlari</b>		<b>Sanoat mahsulotlari</b>	<b>Iste'mol mahsulotlari</b>
	571,4	509,5		1187,5	612,8
<b>Vobkent</b>			<b>Jondor</b>		
	<b>Sanoat mahsulotlari</b>	<b>Iste'mol mahsulotlari</b>		<b>Sanoat mahsulotlari</b>	<b>Iste'mol mahsulotlari</b>
	1195,2	577,3		907,5	442,9
<b>G'ijduvon</b>			<b>Shofirkon</b>		
	<b>Sanoat mahsulotlari</b>	<b>Iste'mol mahsulotlari</b>		<b>Sanoat mahsulotlari</b>	<b>Iste'mol mahsulotlari</b>
	2475,2	1127,6		2016,9	1102,6
<b>Kogon</b>			<b>Buxoro sh.</b>		
	<b>Sanoat mahsulotlari</b>	<b>Iste'mol mahsulotlari</b>		<b>Sanoat mahsulotlari</b>	<b>Iste'mol mahsulotlari</b>
	806,1	414,1		4237,2	1701,6
<b>Qorako'l</b>			<b>Kogon sh.</b>		
	<b>Sanoat mahsulotlari</b>	<b>Iste'mol mahsulotlari</b>			
	84927,1	20029,4			
<b>Qorovulbozor</b>					

## Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

2021- yil yanvar-mart, % da

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 1323,7 mlrd. soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 32,5 % ni tashkil etdi.


Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Vobkent tumanida (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 %), Kogon (96,8 %), Jondor (67,5 %), Shofirkon (64,3 %), hamda Buxoro (64,2 %) tumanlarida kuzatildi.



Viloyatimiz hududlari kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni koʻrsatdiki, Qorovulbozor tumani (1,6 %) va Kogon shahar (23,4 %) sanoat ishlab chiqarish hajmidagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hudularda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.

**Viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalarini**  
(2020- yil 1- aprel holatiga ko'ra)

Bugungi kunda viloyatda 4617 ta sanoat korxonalarini faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 1238 tasi (faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 26,8 % i) Buxoro shahriga, 608 tasi (13,2 % i) G'ijduvon tumaniga, 364 tasi (7,9 % i) Buxoro tumaniga, 363 tasi (7,9 % i) Kogon tumaniga, 318 tasi (6,9 % i) Jondor tumaniga, 316 tasi (6,8 % i) Romitan tumaniga, 291 tasi (6,3 % i) Shofirkon tumaniga to'g'ri kelmoqda.



2020- yilning yanvar-mart oylarida viloyatda 414 ta yangi sanoat korxonalarini tashkil etildi, shulardan 72 tasi (jami yangi tashkil etilgan sanoat korxonalarini hajmidagi ulushi (17,4 %) Buxoro shahrida, 71 tasi (17,1 %) G'ijduvon tumanida, 41 tasi (9,9 %) Shofirkon tumanida, 34 tasi (8,2 %) Romitan tumanida, 33 tasi (8,0 %) Vobkent tumanida tashkil etildi.



**Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturining amalga oshirilishi**

Viloyat sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning yuqori o'sish sur'atlariga erishishda tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish Dasturining amalga oshirilishi ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Mazkur dastur doirasida kiritilgan 61 ta loyiha bo'yicha 199,0 mlrd. so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarildi. Mahalliyashtirish dasturi doirasida ishlab chiqarilgan mahsulotlardan 4,0 mln. AQSh dollari miqdorida eksport qilindi.

Mahalliyashtirish dasturi doirasida 2021- yil yanvar-mart oylarida 282 ta yangi ish o'rinlari yaratildi, o'tgan yilning mos davri bilan taqqoslaganda yangi tashkil etilgan ish o'rinlari soni 130,0 % ni tashkil etdi.



**Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish Dasturining asosiy ko'rsatkichlari (mlrd. so'mda)**

	2020- yil yanvar-mart	2021- yil yanvar-mart
Loyihalar soni, birlik	23	61
Korxonalar soni, birlik	22	98
Ishlab chiqarish hajmi, mlrd. so'm	82,2	199,0
Eksportga qilingan mahalliyashtirilgan mahsulot hajmi, mln. AQSh dollar	2,0	4,0
Yaratilgan yangi ish o'rinlari, birlik	217	282